


Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-martida 798 ta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,0 % kam demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (34 %), savdo sohasida (25 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (12 %), qurilishda tarmog'ida (9 %), yashash va ovqatlanishda (4 %), tashish va saqlashda (5 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 365,7 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 57,9 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 105,6 %ni tashkil qildi;



– 283,3 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 27,8 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 141,4 %ni tashkil qildi;



– 297,2 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 96,1 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 104,4 % ni tashkil qildi;



– 947,8 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyatda jami xizmatlar xajmining 71,7 %), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 100,4 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 92,0 % yoki 1 545,0 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 99,5 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;


– 36,4 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 79,1 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 8,1 mln. AQSh dollariga yoki 28,4 % ga ko`p;




- avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,0 %ga (viloyatda jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 80,5 %i) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 2,5 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 98,0 %) ko`payishi ta`minlandi;

Hududlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (430,2 mlrd.so`m), Namangan (90,6 mlrd.so`m) va Uchqo`rg`on (85,2 mlrd.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2018 yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




2018 yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (639,2 mlrd.so'm), Norin (155,7 mlrd.so'm) va To'raqo'rg'on (100,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Namangan shahri (639,7 mlrd.so'm), Pop (80,3 mlrd.so'm) va To'raqo'rg'on (71,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
hududlar bo`yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Namangan viloyati	57,9	96,1	71,7
Kosonsoy	93,4	100.0	99.8
Mingbuloq	12,3	100.0	99.3
Namangan	75,2	100.0	100.0
Norin	55,6	100.0	99.1
Pop	23,7	72.4	77.6
To'raqo'rg'on	47,6	100.0	82.7
Uychi	71,4	100.0	99.5
Uchqo'rg'on	22,2	100.0	97.8
Chortoq	98,8	100.0	95.7
Chust	72,1	100.0	95.9
Yangiqo'rg'on	100.0	100.0	98.0
Namangan sh	63,2	91.5	47.7


Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Yangiqo'rg'on (100.0%), Chortoq (98.8 %), va Kosonsoy (93.4 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Kosonsoy, Mingbuloq, Namangan, Norin, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq, Yangiqo'rg'on, (100.0 %) va Namangan sh (91.5 %), Pop (72.4 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Namangan (100.0 %), Kosonsoy (99.8 %), Mingbuloq (99.3 %) va Norin (99,1 %) tumanlari tashkil etadi.


2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 46,6 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-martida 49,4 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil I-chorak uchun



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 76,2 % sanoat korxonalari, 60,0 % – savdo, 91,7 % – xizmatlar, 100,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 20,0 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.